UO‘K: 37(077), 379

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

S.Sh. Yunusova

Maqolada zamonaviy ta’limda ingliz tilini o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanishning ahamiyati o‘rganilgan. Talabalarning til ko‘nikmalarini shakllantirish, motivatsiyani oshirish, mustaqil o‘rganishga yo‘naltirish va interaktiv o‘quv muhitini yaratishda raqamli texnologiyalarning roli tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz tilini o‘qitishda Wordwall, Kahoot!, Baamboozle, Quizlet va Google Classroom kabi raqamli platformalar va ilovalardan foydalanishning afzalliklari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *ingliz tilini o‘qitish, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim, onlayn platformalar, Wordwall, Kahoot!, Baamboozle, raqamli pedagogika.*

В статье рассматривается значение цифровых инструментов в преподавании английского языка в условиях современного образования. Показано влияние информационных технологий на процесс обучения иностранным языкам и раскрываются их возможности в развитии языковых навыков, повышении учебной мотивации и поддержке самостоятельного обучения студентов. Особое внимание уделяется использованию платформ Wordwall, Kahoot!, Baamboozle, Quizlet и Google Classroom для создания интерактивной образовательной среды.

Ключевые слова: *преподавание английского языка, цифровые технологии, интерактивное обучение, онлайн-платформы, Wordwall, Kahoot!, Baamboozle, Quizlet, Google Classroom, цифровая педагогика.*

KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi fonida mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha sohalarida, jumladan, xorijiy tillarni o‘qitishda ulkan o‘zgarishlar kuzatildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi buning yorqin misolidir. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-mayda bo‘lib o‘tgan “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 23-kengaytirilgan yig‘ilishida xorijiy tillarni o‘rganish uchun yetarli sharoitlar yaratish va xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish vazifalari qo‘yildi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga joriy etilishi esa xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish metodologiyasini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda an’anaviy o‘qitish usullari raqamli vositalar yordamida yanada interaktiv va samaraliroq olib borilmoqda. Chet tillarini o‘qitish azaldan ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, yoshlarga ulkan imkoniyatlar eshiklarini ochadi. So‘nggi yillarda esa raqamli texnologiyalar hamda kognitiv fanlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarning tez sur’atlarda rivojlanishi ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni olib kirishga xizmat qildi. Shu sababli chet tillarini o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda raqamli vositalar va interaktiv texnologiyalarga asoslangan zamonaviy metodlar keng qo‘llanilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni chet tillarini o‘rganishda qo‘llash dunyo tajribasida o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatgan. Jeremi Harmer o‘zining “Ingliz tilini qanday o‘rgatish kerak?” (“How to teach English?”) kitobida: “Eng yaxshi dars bu – o‘rganuvchilar zerikmaydigan dars”, deya ta’kidlaydi [1]. Uning fikricha, agar o‘qituvchi odatda o‘tirib dars o‘tadigan bo‘lsa, turib yurishi, quvnoq bo‘lsa, biroz sukut saqlashi yoki harakatchan bo‘lsa, biroz o‘tirishi kerak. Bunday harakatlarning asosiy maqsadi esa talabalarning e’tiborini maksimal tarzda o‘ziga qaratishdir. Shu o‘rinda raqamli texnologiyalar barcha yoshdagi til o‘rganuvchilarning e’tiborini rang-barang suratlar, harakatli animatsiyalar hamda ovozlar bilan o‘ziga jalb etadi. “Texnologiya yordamida ingliz tilini qanday o‘qitish kerak?” (“How to Teach English with Technology?”) o‘quv qo‘llanmasi mualliflari Gavin Dudeney va Niki

Hokli o‘qitishga kommunikativ yondashuvdan foydalanadilar va darsda qo‘llaniladigan texnologiya til amaliyotidagi bo‘shliqni to‘ldirishi kerakligini, o‘qitish usullarining o‘rnini bosmasligini ta’kidlaydilar [2]. Kitobda raqamli vositalarni baholash usullari, ularni o‘quv dasturiga joriy etishga oid maslahatlar va o‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Mazkur yondashuv talabalarning idrok, diqqat, xotira va tafakkur kabi kognitiv faoliyatlarini faollashtirib, tilni samarali hamda tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Natijada talabalarda mustaqil ta’lim olish malakalari va kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi va rivojlanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalar yordamida chet tillarini o‘qitish jarayonida kognitiv jarayonlarning rivojlanishini tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy ta’lim metodlarining ta’lim samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Karol Chapell o‘zining “Ingliz tilini o‘rganish va texnologiya” (“English Language Learning and Technology”) asarida raqamli vositalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini baholash uchun nazariy va metodologik asoslarni taklif etadi hamda ularni chet tilini o‘rganish natijadorligi nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi [3]. K.Chappell baholashda “asoslilik” tushunchasini kiritdi va texnologik platformalar o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki keng qamrovli pedagogik tizimning bir qismi sifatida ko‘rib chiqilishi kerakligini uqtiradi. Ushbu jarayon til o‘rganish raqamli vositalaridan foydalanadigan tadqiqotchilar va o‘qituvchilar uchun asosiy muammoga aylandi. Karol Chappell onlayn kurslar, elektron baholashlar va ingliz tilini o‘rganishning moslashuvchan platformalarini ishlab chiqishga ta’sir ko‘rsatdi va ularning pedagogik qiymatini baholash uchun ilmiy asos yaratdi.

Turli xil raqamli vositalardan foydalangan holda ingliz tilini o‘qitish zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biriga aylandi. Ushbu professional amaliyot raqamli o‘rganish vositalari orqali ingliz tili ko‘nikmalarini oshirishni, texnologiyalarni integratsiyalash orqali talabalarni baholashni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda chet tilini o‘qitishda quyidagi raqamli vositalar keng qo‘llaniladi.

Onlayn platformalar – “Duolingo”, “Memrise”, “Rosetta Stone” kabi dasturlar chet tilini o‘rganishni interaktiv va osonlashtiradi. Video va audio materiallar – “YouTube” darslari, podkastlar va audiokitoblar orqali talabalar tinglash va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Raqamli lug‘atlar va tarjima ilovalari – “Cambridge Dictionary”, “WordReference” va “DeepL” kabi resurslar talabalarga so‘z boyligini kengaytirish va tarjima qilishga yordam beradi. O‘yinlar va simulyatsiyalar talabalarga tilni real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini yaratadi.

Ushbu vositalardan tashqari, bugungi kunda ingliz tilini o‘qitishda ko‘plab interaktiv ilovalar faol qo‘llaniladi. “Wordwall”, “Kahoot!”, “Baamboozle”, “Quizlet” va “Google Classroom” kabi platformalar o‘qituvchilarga qiziqarli va talabaga yo‘naltirilgan darslar yaratishda yordam beradi. Masalan, “Wordwall” o‘qituvchilarga o‘z ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘yinlar, viktorinalar va nutq mashqlarini yaratishga imkon beradi, “Kahoot!” esa talabalarni raqobatbardosh onlayn viktorinalar bilan rag‘batlantiradi. “Baamboozle” ayniqsa guruh ishlari va takrorlash uchun samarali, chunki u til o‘rganishni sinfda qiziqarli o‘yinga aylantiradi. “Quizlet” talabalarga fleshkartalar va amaliy mashqlar orqali so‘z boyligini oshirish imkonini beradi. “Google Classroom” esa topshiriqlar, materiallar va onlayn fikr-mulohazalarni almashishni osonlashtiradi. Ushbu vositalar faol ta’lim muhitini yaratadi va talabalarni ingliz tili darslarida yanada faol ishtirok etishga undaydi [5].

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi hamkorlik va muloqotni qo‘llab-quvvatlaydi. “Zoom” va “Microsoft Teams” kabi videokonferensiya platformalaridan foydalangan holda, talabalar onlayn darslarda qatnashishlari, til egalari bilan bog‘lanishlari va xalqaro o‘quv loyihalarida ishtirok etishlari mumkin. Natijada o‘quv jarayoni yanada moslashuvchan, qulay va talabaga yo‘naltirilgan bo‘lib qoladi. Raqamli vositalarni ingliz tilini o‘qitishga integratsiya qilish nafaqat til ko‘nikmalarini yaxshilaydi, balki til o‘rganuvchilarda zamonaviy dunyoda zarur bo‘lgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot materiali sifatida “Wordwall”, “Kahoot!”, “Baamboozle”, “Quizlet” kabi raqamli vositalar va ularda mavjud resurslardan foydalanildi. Ushbu platformalar orqali talabalar faolligi, motivatsiyasi va ingliz tilini o‘zlashtirish darajasidagi o‘zgarishlar kuzatildi.

Ingliz tilini o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanishning samaradorligini o‘rganish maqsadida nazariy va amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mahalliy tadqiqotchilar orasida M.Xudoyberdiyevaning ishlari alohida o’rin tutadi. Uning “Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda hamkorlik metodlarining ahamiyati” nomli maqolasida [1] hamkorlikka asoslangan o’qitish metodlari orqali raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari ko’rib chiqilgan. N.Abdurah-

monova esa o‘z tadqiqotida [2] bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. S.Yunusovaning so‘nggi tadqiqotlari [11] sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatiga ta’sirini o‘rganib, zamonaviy AIdan foydalanish imkoniyatlarini keng yoritgan.

Xorijiy olimlar ichida C.A.Chapellening fundamental asari [4] axborot va kommunikatsiya texnologiyalari davrida amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ingliz tilini o‘qitishning nazariy asoslarini belgilab bergan. G.Dudeney va N.Hocklyning “How to Teach English with Technology” (“Texnologiya yordamida ingliz tilini qanday o‘qitish kerak”) [5] kitobida esa texnologiyalardan amaliy foydalanish usullari va dars jarayoniga integratsiyalash yo‘llari batafsil keltirilgan. Kompyuter yordamida til o‘rgatish sohasida M.Levyning klassik tadqiqoti [9] bu yo‘nalishning konseptual asoslarini shakllantirgan. J.Harmerning “How to Teach English” (“Ingliz tilini qanday o‘rgatish kerak”) [7] asari esa bugungi kunda ham o‘qituvchilar uchun amaliy qo‘llanma sifatida keng qo‘llanilmoqda. G.Motteram tahriri ostida nashr etilgan qo‘llanmada [10] til ta’limida aralash o‘qitish modellarini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari batafsil tahlil qilingan.

H.M.Alakrash va N.Abdul Razakning raqamli texnologiyalar hamda raqamli savodxonlik sohasidagi qo‘shma tadqiqotida [3] texnologiyaga asoslangan til o‘rganishning barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan samaradorligi tahlil etilgan.

Pedagogikaning nazariy asoslarini yoritishda Z.K.Ismailovaning “Pedagogika” darsligi [8] muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Unda ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlari va asosiy tamoyillari bayon etilgan.

Jumladan, ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan raqamli platformalar va interaktiv ilovalarning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Pedagogik eksperiment metodi orqali ilmiy gipotezalarning ishonchli ekanligini tekshirdik, muayyan yaratilgan sharoitda tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilab, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga oldik. Eksperiment o‘tkazish tezkorlik tamoyillariga javob berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak, ya’ni: 1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo‘lishi. 2. Tadqiqot metodlarining ishonchliligi. 3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish [5]. Tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqotning amaliy qismida ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida talabalar o‘rtasida interaktivlik, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari hamda kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi aniqlandi. Olingan natijalar asosida ingliz tilini o‘qitishda raqamli vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu metodologiya miqdoriy va sifat tadqiqot usullarini birlashtirgan holda ingliz tilini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi. Miqdoriy tahlil talabalar bilim darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, sifat tahlili talabalar va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari hamda dars jarayonidagi faolligini o‘rganishga xizmat qildi. Ushbu tadqiqot davomida eksperimental, kuzatish va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Eksperimental metod asosida talabalar ikki guruhga ajratildi: nazorat va tajriba. Nazorat o‘tkazilgan guruhda an’anaviy ta’lim usullari qo‘llanilgan bo‘lsa, tajriba guruhida darslar raqamli axborot vositalari asosida tashkil etildi. Jumladan, “Quizlet”, “Kahoot!” va “Google Classroom” kabi platformalardan foydalanildi [7].

Tadqiqot boshida talabalar bilimini aniqlash maqsadida test o‘tkazildi, tadqiqot yakunida esa post-test orqali natijalar qayta baholandi. Tadqiqotda ishtirok etgan 2 ta bir xil til bilish darajasidagi guruhlarning birida asosiy e’tibor o‘qituvchiga qaratildi (“teacher-centered”), ikkinchi guruhda esa “student-centered” metodidan foydalanilgan holda zamonaviy platformalarda o‘quv jarayoni olib borildi.

O‘qituvchi markazda bo‘lgan guruhlarda, asosan, ma’ruza metodi orqali doskaga mavzular yozib tushuntirildi, talabalar faqatgina kitob hamda tarqatma materiallardan foydalanib, mavzuni daftarga yozib oldilar. Ta’limning an’anaviy metodlariga asoslangan holda olib borilgan dars mashg‘ulotlari davomida talabalar nazariy bilimlarni yaxshi egalladilar, ularning grammatik bilimlari, o‘qib tushunish hamda yozish ko‘nikmalari yaxshi rivojlandi.

Ajratilgan muddatda aynan ikkinchi guruh talabalarining ingliz tilidagi gapirish, eshitib tushunish, o‘qish hamda yozish ko‘nikmalari 30% ga yuqoriroq natijani ko‘rsatdi. Bundan tashqari ularning ingliz tili grammatikasiga oid bilimlari ham sezilarli darajada oshib, talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, ingliz tilida mustaqil fikr yurita olish qobiliyatlarida ham ijobiy natijalar kuzatildi. Bilimni baholash uchun “Bamboozle” va “Kahoot!” platformalarining o‘ziga xos dizayni, labellar, stikerlar hamda maxsus effektlari ta’sirida talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortib, mazkur platformalarning motivatsion effektga ega ekanligi kuzatildi.

Ushbu metodologiyaning yangiligi shundan iboratki, u ingliz tilini o‘qitishni yanada oson hamda samarali ekanligini ko‘rsatadi hamda:

- sun’iy intellekt asosidagi platformalar – “ChatGPT”, “Google Classroom” va boshqa raqamli vositalar ingliz tilini o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Bu texnologiyalar talabalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirib, yozish, gapirish va fikr almashish ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

- virtual va multimedia texnologiyalari – ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan virtual darslar, video platformalar, 3D muhitlar va multimedia materiallari talabalar uchun haqiqiy til muhitini yaratadi. Bu esa tinglab tushunish, talaffuz va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

- gamifikatsiya elementlari – "Kahoot!", "Wordwall", "Baamboozle" platformalarida qo'llaniladigan ball, reyting, badge va sertifikat tizimlari talabalar motivatsiyasini oshiradi hamda ingliz tilini o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, tajriba guruhidagi talabalarning natijalari sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi. Bundan tashqari, sifat tahlili uchun talabalar o'rtasida anketa va intervyular tashkil etildi. So'rovnomalar orqali talabalarning raqamli texnologiyalarga bo'lgan munosabati, darslarga qiziqishi va motivatsiyasi o'rganildi. Kuzatish metodida esa talabalarning darsdagi ishtiroki, kommunikativ faolligi va mustaqil ishlash ko'nikmalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ingliz tili darslari ta'lim samaradorligini oshirishi, talabalar motivatsiyasini kuchaytirishi hamda interaktiv o'quv muhitini yaratishini ko'rsatdi.


Tajriba o'tkazilgan raqamli platformalar universitet talabalarining yoshlariga hamda ingliz tilini bilish darajalariga mos ravishda tanlandi. Tajriba guruhlarida ko'proq o'qituvchi markazda bo'lgan holda talabalarda zerikish hamda darsni to'liq o'zlashtira olmaslik kuzatildi, shu bilan birga, asosan, talaba markazda bo'lgan dars mashg'ulotlarida tartibsizlik, dars mavzusidan chetlashish, ba'zi talabalarning gadjetlardan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari kuzatildi.

Tadqiqot natijasida ingliz tilini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish ta'lim samaradorligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot davomida olingan tadqiqotdan oldingi test va tadqiqotdan keyingi test natijalari tahlili tajriba guruhidagi talabalarning til ko'nikmalarida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatdi. Xususan, lug'at boyligi, tinglab tushunish, o'qish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli vositalarning samaradorligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi talabalarning o'rtacha natijasi tadqiqotdan oldingi testda 58 foizni tashkil etgan bo'lsa, tadqiqotdan keyingi testda bu ko'rsatkich 82 foizga yetdi. Nazorat guruhida esa o'sish nisbatan past bo'lib, natijalar 56 foizdan 68 foizgacha oshgani kuzatildi. Mazkur statistik ma'lumotlar raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning akademik ko'rsatkichlarini yaxshilashda samarali vosita ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida talabalar uchun interaktiv va multimediaga asoslangan darslar tashkil etildi. Dars jarayonida "Quizlet" platformasi yordamida yangi lug'at birliklarini o'zlashtirish va takrorlash mashqlari bajarildi. Talabalar ushbu platforma orqali kartochkalar, moslashtirish va test topshiriqlari asosida mustaqil mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, "Quizlet" yordamida ishlagan talabalar yangi so'zlarni eslab qolishda an'anaviy usullarga nisbatan tezroq va samaraliroq natija qayd etdilar. Bundan tashqari, "Kahoot!" platformasi orqali tashkil etilgan interaktiv viktorinalar talabalar motivatsiyasini sezilarli oshirdi. Ayniqsa, real vaqt rejimida o'tkazilgan testlar va reyting tizimi talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirdi hamda ularning darsdagi faolligini kuchaytirdi.

Sifat tahlili natijalari ham raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tasdiqladi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning 87 foizi raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan darslarni an'anaviy darslarga qaraganda qiziqarliroq deb baholagan. Shuningdek, respondentlarning 81 foizi texnologiyalar yordamida mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanganini ta'kidladilar. Talabalarning 78 foizi esa onlayn platformalar orqali topshiriqlarni bajarish ularga vaqtni samarali boshqarish imkonini berganini qayd etdilar. Intervyu natijalarida ko'plab talabalar multimedia materiallari, videolar va interaktiv topshiriqlar mavzularni tushunishni osonlashtirganini ta'kidladilar.

Kuzatish natijalari ham tajriba guruhidagi talabalar dars jarayonida faolroq ishtirok etganini ko'rsatdi. Ayniqsa, juftlik va guruh bilan ishlash topshiriqlarida talabalar o'rtasidagi kommunikativ hamkorlik darajasi yuqori bo'ldi. "Google Classroom" platformasi orqali o'quv materiallarini tarqatish, uy vazifalarini topshirish va individual fikr-mulohazalar berish imkoniyati o'quv jarayonining tizimliligini oshirdi. Talabalar istalgan vaqtda platformaga kirib, materiallarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu esa ayniqsa mustaqil ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, ayrim darslarning "Zoom" orqali tashkil etilishi masofaviy ta'lim sharoitida ham interaktiv muhit yaratishga yordam berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Kahoot va Quizlet eng samarali vositalar sifatida baholandi.



1-rasm. Ingliz tilini o‘qitishda raqamli vositalarning samaradorligi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli texnologiyalarni ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda ta’lim samaradorligini yaxshilashda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Multimedia resurslari, interaktiv platformalar va onlayn ta’lim vositalari talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalar ehtiyojlariga moslashtirish va mustaqil ta’lim kompetensiyalarini rivojlantirishda ham samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy ingliz tili ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion pedagogik yondashuv sifatida keng qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Ta’kidlash joizki, kelgusida olib boriladigan izlanishlar faqatgina ushbu tadqiqot modeli bilan cheklanib qolmasdan, ingliz tilini o‘rganishga psixologik yondashilgan xalqaro tajribalarni o‘zida mujassam etgan modelni yaratish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *Xudoyberdiyeva M.* Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda hamkorlik metodlarining ahamiyati. // “Ta’lim va rivojlanish tahlillari” jurnali. – 2021. – № 2(5). – B.120–129.

2. *Abdurahmonova N.* Bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari // “Ta’lim texnologiyalari” jurnali. – 2020. – № 3(2). – Pp. 45–52.

3. *Alakrash H.M., Abdul Razak N.* Technology-based language learning // Investigation of digital technology and digital literacy. Sustainability. – 2021. – No 13(21). – Pp. 123–128.

4. *Chapelle C.A.* English language learning and technology: Lectures on applied linguistics in the age of information and communication technology. –USA: John Benjamins Publishing Company, 2003. – 230 p. [Online]. URL: https://doi.org/10.1075/lllt.7 (Date of Access: 18.11.2025)

5. *Dudeney G., & Hockly N.* How to teach English with technology. Pearson Education. 2007. – 194 p. [Online]. URL: https://content.fimsschools.com/ebooks/ (Date of Access: 18.11.2025)

6. *Pegrum, M.*, *Hockly, N., Dudeney G.* Digital literacies. – London: Routledge, 2013. – 400 p.

7. *Harmer J.* How to teach English. – Pearson Longman, 2007. – 288 p.

8. *Исмаилова З.К.* Педагогика. – Тошкент: Молия, 2008. – 153 б.

9. *Levy M.* Computer-assisted language learning: Context and conceptualization. – New York: Oxford University Press, 1997. – 310 p.

10. *Motteram G.* (ed.) The Cambridge guide to blended learning for language teaching. Cambridge University Press, 2013. – 287 p.

11. *Yunusova S.* Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini takomillashtirish // Journal of Pedagogical Research, 2025. – No 7. – Pp. 62–64.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH

S.Sh. Yunusova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2026. 2(94). 28-34.

[1]Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Tashkent, 100100, str. Yusuf Xos Hojib, 103 (Uzbekistan). E-mail: interdep@navoiy-uni.uz

Key words: English language teaching, digital technologies, interactive learning, online platforms, Wordwall, Kahoot!, Baamboozle, digital pedagogy.

The article discusses the importance of using digital tools in teaching English in modern education. Today, the rapid development of information technologies has had a significant impact on the education system and has created new opportunities for teaching and learning foreign languages. The article emphasizes the role of digital technologies in improving students' language skills, increasing motivation, supporting independent learning, and creating an interactive learning environment. It also examines the advantages of using digital platforms and applications such as Wordwall, Kahoot!, Baamboozle, Quizlet, and Google Classroom in teaching English.

This article uses theoretical and applied research methods to study the effectiveness of using digital tools in teaching English. During the study, scientific literature, articles by foreign and domestic scientists, and sources on modern pedagogical technologies were analyzed. In particular, the impact of digital platforms and interactive applications used in teaching English on the educational process was studied. Using the pedagogical experimental method, we verified the reliability of scientific hypotheses, clearly defined the materials to be studied in specific created conditions, and comprehensively considered the results of the experiment.

The introduction of digital technologies into the educational process has fundamentally changed the methodology of learning and teaching foreign languages. Now traditional teaching methods are being made more interactive and effective using digital tools. Teaching foreign languages has long been considered one of the important areas of the education system, opening up huge opportunities for young people. In recent years, the rapid development of scientific research in digital technologies and cognitive sciences has served to introduce innovative approaches to the educational process. Therefore, along with traditional methods, modern methods based on digital tools and interactive technologies are widely used in teaching foreign languages.

Digital technologies also support collaboration and communication between teachers and students. Using video conferencing platforms such as Zoom and Microsoft Teams, students can participate in online classes, connect with native speakers, and participate in international learning projects. As a result, the learning process becomes more flexible, convenient, and learner-centered. Integrating digital tools into English language teaching not only improves language skills, but also develops the creativity, critical thinking, communication, and digital literacy skills that language learners need in the modern world.

References:

1. Khudoyberdiyeva, M. (2021). Raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda hamkorlik metodlarining ahamiyati [The importance of collaborative methods in the formation of digital competencies]. *"Ta'lim va rivojlanish tahlillari" jurnali.* No 2(5). Pp.120-129.

2. Abdurakhmonova, N. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarda axborot-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari [Methods for developing information and communication competencies in future teachers]. "Ta'lim texnologiyalari" jurnali. No 3(2). Pp. 45-52.

3. Alakrash, H.M., Abdul Razak, N. (2021). Technology-based language learning. *Investigation of digital technology and digital literacy. Sustainability.* No 13(21). Pp. 123-128.

4. Carrio-Pastor M. L. (ed.). (2021). Teaching English as a foreign language // Springer

5. Chapelle, C.A.(2003) English language learning and technology: Lectures on applied linguistics in the age of information and communication technology. USA: John Benjamins Publishing Company. [Online]. URL: https://doi.org/10.1075/lllt.7 (Date of Access: 18.11.2025)

6. Dudeney, G., Hockly, N. (2007). How to teach English with technology. Pearson Education. [Online]. URL: https://content.fimsschools.com/ebooks/English%2003/How%20To%20Teach%20English%20With%20 Technology%20Book.pdf(Date of Access: 08. 09. 2025)

7. Pegrum, M., Hockly, N., Dudeney G., (2013). Digital literacies. London: Routledge.

8. Harmer, J. (2007). How to teach English. Pearson Longman.

9. Ismailova, Z.K. (2008). Pedagogika [Pedagogy]. Tashkent: Moliya.

10. Levy, M. (1997). Computer-assisted language learning: Context and conceptualization. New York: Oxford University Press.

11. Motteram, G. (ed.) (2013). The Cambridge guide to blended learning for language teaching. Cambridge University Press.

12. Yunusova, S. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini takomillashtirish [Improving the pedagogical activities of English language teachers using artificial intelligence technologies]. *Journal of Pedagogical Research*. No 7. Pp. 62-64.

Muallif haqida ma'lumot

YUNUSOVA Sitora Sherdil qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: sitorayunusova481@gmail.com